

Zamonaviy Dorilardan To'g'ri va Noto'g'ri Foydalanish

6

BOB

DORILARNI ISHLATISH YUZASIDAN MASLAHATLAR.

Ba`zan biz xasta bo`lganimizda dori-darmonlardan foydalanamiz. Dorilarni esa davlatga qarashli va xususiy dorixonalardan sotib olamiz. Lekin bir muammo borki, bu to`g`risida o`ylab ko`rmaymiz: Dorilarning hammasi ham biz uchun foydalimi? Jahon Sog`liqni Saqlash Tashkilotining ma`lumotlariga qaraganda, butun yer yuzida sotiladigan 60000 xil dorilarning faqatgina 200 tachasi bemorlar uchun kerakli ekan xolos.

Shuningdek, ba`zan odamlar yaxshi ta`sir qiluvchi dorilarni ham noto`g`ri ishlatadilar va natijada ularning foydasidan ko`ra zarari ko`p bo`ladi. **Dorilar foydali bo`lishi uchun ularni to`g`ri ishlatish zarur.**

Ko`p odamlar, shu jumladan, shifokor va tibbiyot xodimlari ham keragidan ko`proq dori tavsiya qiladilar va buning natijasida ko`plab muammolar kelib chiqadi.

Har qanday dorining o`ziga yarasha xavfli tomonlari bor.

Ba`zi dorilar boshqalariga nisbatan ancha xavfliroq. Afsuski, ba`zi odamlar oddiy kasalliklarga ham juda xavfli dorilar ishlatadilar. (Men levomitsetin, ya`ni xloramfenikol) kabi xavfli dorilarni oddiy shamollashga qarshi onasi tomonidan berilishi natijasida nobud bo`lgan bolani ko`rganman.) **Hech qachon yengil kasalliklarga qarshi xavfli dori ishlatmang.**



ESINGIZDA TUTING: DORILAR O`LIMGA OLIB KELISHI MUMKIN.

Dorilarni ishlatish yuzasidan maslahatlar:

1. Dorilarni faqat kerak bo'lganidagina ishlatning.
2. Har qanday dorini to'g'ri ishlatish yo'llarini va uning xavfli tomonlarini bilib oling. (YASHIL SAHIFALARGA qarang).
3. Dorilarni to'g'ri miqdorda ishlatayotganingizga e'tibor bering.
4. Agar dori bir necha kundan so'ng ham ta'sir qilmasa yoki yangi, qo'shimcha muammolarga sabab bo'lsa, uni ishlatishni to'xtating.
5. Shubhalansangiz, tibbiyot xodimi bilan maslahatlashing.

Eslatma: Ba'zi tibbiyot xodimlari kerak bo'lmagan hollarda ham dori beradilar, ko'pincha ular bemor dori berishimizni xohlayapti va u dori bermaguncha tinchlanmaydi deb o'ylaydilar. Shifokorga va tibbiyot xodimingizga aytingki, ular sizga faqat juda zarur dorilarni tavsiya qilishsin. Bu sizning pulingizni tejaydi hamda sog'lig'ingizni saqlaydi.

**Dorilarni faqat kerak bo'lganda va qanday foydalanishni
bilganingizdagina ishlatning.**

DORILARDAN NOTO'G'RI FOYDALANISHNING O'TA XAVFLI HOLLARI

Quyida zamonaviy dorilarni ishlatishda odamlar yo'l qo'yadigan eng oddiy va xavfli xatolar ko'rsatilgan. Dorilarning noto'g'ri ishlatilishi har yili necha-necha odamlarni o'limga olib keladi. EHTIYOT BO'LING!



1. Levomitsetin (*Xloramfenikol*) (639- bet)

Ushbu dorining oddiy ich ketishida va boshqa yengil kasalliklarda ishlatilishi noto'g'ridir, chunki bu juda xavfli. Uni faqat ich terlama (355-bet) kabi og'ir kasalliklarda ishlatning. Hech qachon uni bir oydan yosh bo'lgan chaqaloqlarga bermang.

2. Oksitotsin (Pitotsin), Metilergometrin (Metergin)
(486- bet)



Afsuski, ba`zi doylar tug`ruq tezlishtirish va tug`ruq faoliyatini kuchaytirish uchun onalarga shu dorilardan birini ishlatadilar, lekin bu juda xavfli. Bunda ona yoki bola nobud bo`lishi mumkin. Ushbu dorilar **bola tug`ilib bo`lgandan so`ng**, faqat **qon ketishining** oldini olish uchun ishlatilishi mumkin. Agar bolaning tug`ilishi 2 haftadan ko`proq vaqtga kechikayotgan bo`lsagina, uni shifokor nazorati ostida ishlatsa bo`ladi, lekin bunda chaqaloqning yurak urishini doimiy ravishda nazorat qilish shart.

3. Ukol shaklidagi dorilar.

Ukollar ichiladigan dorilardan yaxshiroq degan tushuncha **noto`g`ridir**. Ko`p hollarda ichiladigan dorilar ukollardek, hatto ulardan ham yaxshiroq ta`sir qilishi mumkin.



Bundan tashqari, **ko`p dorilarning ukollari ichiladiganlariga nisbatan xavfliroq**. Poliomielitning yengil turi bilan og`riyotgan (faqatgina shamollash belgilari bor) bolaga ukol qilinsa, bu uning shol bo`lib qolishiga olib kelishi mumkin (165-bet).

Masalan: bemor shol kasalligiga chalingan deb gumon qilinsa-yu, lekin dardni aniqlamay turib ukol qilinsa, bu ukol shol bo`lmagan bemorni ham shol qilib ko`yishi mumkin. **Ukollarning ishlatilishi chegaralangan bo`lishi kerak**. (9-bobni diqqat bilan o`qing).

4. Penitsillinlar (634-bet).

Penitsillinlar faqat ma`lum bir infeksiyalar turiga qarshi ishlatiladi, xolos. Ularni har qanday isitma, og`riq yoki to`qimalarning shikastlanishi, ko`karish larga qarshi ishlatish noto`g`ridir. Teri ostidagi to`qimalarning har qanday shikastlanishida, hatto katta bo`lib, ko`karib chiqsa ham, infeksiyalanish xavfi yo`q, shuning uchun, ularni penitsillin va boshqa antibiotiklar bilan davolash kerak emas. Hech qanday antibiotik yoki penitsillin oddiy shamollashni davolashga yordam bermaydi (302-bet).

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Penitsillin allergiyasi bor ba`zi odamlar uchun xavfli. Uni ishlatishdan avval uning ehtiyot choralarini ko`ring— 159 va 634-betlarga qarang.

5. Kanamitsin va Gentamitsin (643- bet).

Ushbu antibiotiklarning bolalarda juda ko`p ishlatilishi millionlab bolalarning eshitmay qolishi (karlik)ga olib kelgan. Uni faqat juda xavfli infeksiyalar bilan kasallangan bolalarga bering. Ampitsillin yuqoridagi antibiotiklarga qaraganda xavfsizroq, uni chaqaloqlarda uchraydigan bir qancha infeksiyalarga qarshi ishlatilsa bo`ladi.

6. Kortizon va kortikosteroidlar (*Prednizolon, deksametazon va boshqalar*) ning tabletka va ukollari.

Bular yallig`lanishga qarshi ishlatiladigan kuchli dorilar bo`lib, vaqti kelganda ular astma, artrit yoki boshqa og`ir allergik holatlarda ham ishlatiladi. Lekin steroidlar odatda tez ta`sir qilgani tufayli ko`p mamlakatlarda og`riq qoldiruvchilar sifatida ishlatiladi. Bu katta xatodir. Ayniqsa, steroidlar yuqori miqdorda yoki uzoq muddat davomida ishlatilganda, jiddiy salbiy ta`sir qilishi mumkin. Ular odamning infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini susaytiradi hamda sil kasalligini og`irlashtiradi, oshqozon yaralarini qonatadi suyaklarning noziklashuvi oqibatida ularning oson sinadigan bo`lib qolishiga sabab bo`ladi.

7. Anabolik steroidlar: Metandrostenolon (*Tenobolin, retabolil, silabolin, metilandrostendiol*).

Anabolik steroidlar erkak gormonlaridan tayyorlangan bo`lib, bolalar vaznini tez oshiruvchi va o`shishiga yordamlashuvchi dorilar sifatida ishlatiladi. Natijada, dastlab bola tezroq o`sa boshlaydi, ammo uning o`shishi tez to`xtaydi va bu bolaning bo`yi dori ichmagan bolaga nisbatan pastroq bo`ladi. Anabolik steroidlarning o`ta xavfli salbiy ta`sirlari bor. Qizlarning yuzida og`il bolalarnikidek tuk o`sa boshlaydi va dori qabul qilishni to`xtatganlaridan so`ng ham ular yo`qolmaydi.

Bolalarga anabolik dorilarni bermang. Undan ko`ra pulingizni bolani ovqatlantirishga sarflang. Masalan: to`yimli, ozuqali ovqatlardan tuxum, go`sht, jigar, til, sut, qatiq kabi ovqatlar va har xil sharbatlarga ishlating.


8. OG`RIQLARGA QARSHI DORILAR: Dipiron (*Analgin, Metamizol*)

Ushbu dorilar og`riqlarga qarshi ishlatib kelinmoqda. Ammo ular ba`zan jiddiy qon kasalligiga (agranulotsitozga) olib kelishi, shuningdek oshqozon, buyrak va jigarni ham shikastlashi mumkin. Budorilarni ishlatmang. Ularning o`rniga paratsetamol, aspirin yoki ibuprofen kabi og`riqqa qarshi tavsiya etilgan dorilardan foydalaning. (649-betga qarang.)

9. Vitamin "B₁₂", jigar ekstrakti va tarkibida temir moddasi bor ukollar (155-bet).

Ayrim hollardan tashqari, Vitamin B12 va jigar ekstrakti kamqonlik yoki „quvvatsizlik“ka yordam bermaydi. Shuningdek, ular ukol qilinganda ma`lum darajada xavflidir. Ular faqat qon tahlillaridan so`ng mutaxassis tomonidan tavsiya etilgan bo`lishi kerak. Temir tarkibli ukollarni olmang. Kamqonlikka qarshi kurashish uchun temir tarkibli tabletkalar xavfsizroq va samaraliroqdir (242-243-bet).

10. Boshqa vitaminlar (701-707-betlar)




VITAMINLARNI UKOL QILDIRMANG. Ukollar xavfli, qimmatroq va odatda tabletkalarga nisbatan foydali emas.

Afsuski, ko`plab odamlar pullarini maxsus tayyorlangan, vitaminli sharbat, omuxta suyuqlik va afsonaviy hayotbaxsh ichimliklarga sarflaydilar. Ularning ko`pida asosiy vitaminlar yo`q (233-bet). Lekin ular tarkibida vitaminlar bo`lgan taqdirda ham pulni ko`proq foyda beradigan ovqatlarga sarflagan ma`qulroq.

Loviya, tuxum, go`sht, meva, sabzavotlar organizmni tiklovchi va himoyalovchi ozuqalardir. Donlar ham vitaminlar va boshqa ozuqali moddalarga boydir. (222-223-bet). Ozg`in, quvvatsiz odamga vitamin va mineral qo`shimchalardan ko`ra yaxshi sifatli ovqat bergan foydaliroq.

Yaxshi oziqlanadigan odamga odatda qo`shimcha vitaminlar kerak emas.

VITAMINLAR ISTE`MOL QILISHNING ENG YAXSHI YO`LI:



Vitaminlarni qachon qabul qilish kerakligi va tarkibida vitaminlar bor ovqatlar haqida ko`proq ma`lumot olish uchun 11-bobni, ayniqsa, 222-223 va 233-betlarni o`qing.

11. Dorilar aralashmasi (kombinatsiyasi, birikmalari).

Ba`zan 2 va undan ortiq dorilar bitta tabletka yoki suyuq doriga qo`shilgan bo`ladi. Odatda, ularning ta`sir kuchi kamroq, o`zi esa oddiy dorilardan qimmatroq bo`ladi. Ba`zan **ularning zarari foydasidan ko`proq**. Agar kimdir sizga shunday dorilarni qabul qilishingizni tavsiya etsa, undan faqat zarur dorini yozib berishini iltimos qiling. Pulingizni bunday dorilarga sarf qilmang.

OITSGa qarshi ba`zi dorilar ko`pincha kombinatsiyada keladi. (688 - bet). Bu esa o`z o`rnida tabletkalarni qabul qilishni yengillashtiradi.

Quyida berilgan ba`zi oddiy birikmalardan **foydalanmaganingiz ma`qul**:

- **yo`tal to`xtatadigan va balg`amni suyuqlashtiradigan** dorilardan tayyorlangan yo`tal dorilari deyarli kerak emas va ularni sotib olish bekor-ga pul sarflash xolos.
- **antibiotiklarning ich ketarga qarshi dorilar** bilan biriktirilgan shakli.
- **ikki yoki undan ortiq og`riq qoldiruvchi dorilar** (aspirinning atsetomi-nofen yoki kofein bilan birikmasi).

12. Kalsiy



Kalsiyni tomirga ukol qilinishi juda xavfli bo`lishi mumkin. U **asta-sekinlik** bilan qilinmasa, bir zumda odamni o`ldirib qo`yishi mumkin. Kalsiy dumba (muskul)ga yoki boshqa to`qimalarga qilinganda abscess (gazak) hosil bo`lishi mumkin. Natijada infeksiyalanish xavfi tug`iladi.

Hech qachon tibbiy maslahat olmay turib kalsiy ukollarini olmang.

13. "Osma ukol" (Tomir ichiga eritmalar quyish)

Ko`p joylarda kamqon yoki juda kamquvvat bo`lgan odamlar o`zlarining oxirgi pullarini osma ukol olish uchun sarflaydilar. Bu ularni kuchliroq va qonlarini boyroq qilishiga ishonadilar. Lekin ular adashmoqdalar! Venaga quyiladigan suyuqliklar, tarkibida miqdorda turli xil tuz yoki shakar moddasi bo`lgan suvgina xolos. Ular oddiy shakarchalik ham quvvat bermaydi va qonni ko`paytirmasdan, ozaytiradi, u kamqon odamlarga yordam bermaydi va quvvatsizlarga quvvat bermaydi.

Venaga suyuqlik quyish qoidalariga rioya qilmasa, qonga infeksiya tushib qolish xavfi bor. Bu infeksiya odamni hayotdan olib ketishi mumkin


Odam hech narsa yeb-icholmay yoki o`ta suvsizlanib (281-bet) ketgandagina suyuqliklar tomirdan yuborilishi kerak. Bunday holda tibbiy yordamga murojaat qiling.

Agar bemor yuta olsa, unga qo`shimcha suyuqlik (Suvni Tiklovchi Ichimlik 282-bet) bering. Bu esa venaga bir litr suyuqlik quyish bilan tengdir.

Ovqat iste`mol qila oladigan odamlarga har qanday osma ukollar-

dan ko`ra ozuqali moddalarga boy ovqatlar ko`proq quvvat bo`ladi.

Agar kasal odam yuta olsa va qaytarib chiqarmasa, unda...



QACHON DORI ICHILMASLIGI KERAK?

Ko`p odamlar dori ichib yuradigan davrda ba`zi narsalar kishiga yoqadi, boshqalari yoqmaydi, deb ishonadilar. Shuning uchun ular o`zlariga kerak bo`lgan dorini ichmay qo`yishlari mumkin. Haqiqatda esa, hech qanday dori ma`lum ovqatlar bilan iste`mol qilingani uchun zararli bo`lmaydi. Lekin juda yog`li yoki ziravorli ovqatlar, dori ichilayotgan yoki ichilmayotganidan qat`iy nazar, oshqozon yoki hazm a`zolarining ishini yomonlashtirishi mumkin (316-320-betlar). Spirtli ichimlik iste`mol qiluvchilarga ba`zi dorilar salbiy ta`sir qilishi mumkin (649-654-betlarga qarang. Metronidazol).

Quyidagi hollarda, shubhalanmay, ma`lum dorilarni **qabul qilmaslik** kerak:



1. Homilador yoki emizikli onalar juda ham zarur bo`lmagunga qadar dori qabul qilmasliklari kerak.


(Shunga qaramay, ular vitamin yoki temir tarkibli tabletkalarni chegaralangan miqdorda qabul qilishlari mumkin).

2. Yangi tug`ilgan chaqaloqlarga dori ishlatishda ehtiyot bo`ling. Ularga har qanday dori berishdan

avval tibbiy maslahat oling. Chaqaloqqa ortiqcha dori bermayotganingizga ishonch hosil qiling.



3. Shuningdek, penitsillin, ampitsillin, sulfanilamid yoki boshqa dorilarga *allergiyasi* (toshma, qichima va boshqalar) bo'lgan odamlar o'sha dorilarni **um-rining oxirigacha ishlatmasliklari kerak**, chunki ular xavflidir. (Ma'lum dorilar yoki ukollarning xavfli ta'sirlari 160-betda yozilgan).



4. Oshqozon yarasi bor odamlar tarkibida aspirin moddasi bor dorilardan o'zlarini tiyishlari kerak. Og'riqni qoldiruvchi dorilar va steroid gormonlar (131-bet) yaralarga yomon ta'sir qiladi va ovqat hazmini buzadi. Paratsetamol oshqozonga yomon ta'sir qilmaydigan og'riq qoldiruvchidir (paratsetamol, 650-bet).

5. Ma'lum kasalliklarga qarshi qo'llanilganda zararli yoki xavfli bo'lgan bir necha dorilar mavjud. Masalan, sariq kasalligi bilan og'ruvchi odamlar antibiotik yoki boshqa kuchli dorilar bilan davolanmasliklari kerak, chunki ularning jigari shikastlangan bo'ladi, shunga ko'ra dorilar organizmni zaharlashi mumkin (322-bet).

6. Ayniqsa, suvsizlangan yoki buyragi kasal odamlar qabul qilayotgan dorilarining zararidan juda ehtiyot bo'lishlari kerak. Ularning siyishi normallashtirmaguncha organizmni zaharlashi mumkin bo'lgan dorini bitta doza (miqdor)dan ortiq bermang. Masalan, agar bola isitmalab tursa va suvsizlangan bo'lsa, u yaxshi siyadigan bo'lmaguncha unga bitta miqdordan ortiq paratsetamol yoki aspirin bermang. **Suvsizlangan odamga xech kachon sulfanilamidlar** (misol uchun, T-septol, 640-bet) **bermang** va bu hollarda shifokor bilan maslahatlashishga harakat qiling.